

SAVOL, TOPSHIRIQ VA MASHQ MUAMMOSI: ADABIY TAFAKKURNI  
SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**Haqberdiyeva Qunduz Abdurasul qizi**

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti*

+998974222955

[yulduzxaqberdiyeva7@gmail.com](mailto:yulduzxaqberdiyeva7@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada adabiyot ta'limida savol-javob metodining ustuvorligi tanqidiy tahlil qilinadi hamda savol, topshiriq va mashq tushunchalarining didaktik funksiyalari nazariy asosda yoritiladi. Maqolada o'zbek pedagog olimlarining qarashlari, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar va badiiy asar tahlili asosida topshiriq va mashqlarga tayangan yondashuvning ustun jihatlari asoslanishi natijasida adabiyot ta'limida faoliyatga yo'naltirilgan metodlarni joriy etish zarurligi ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *adabiyot ta'limi, savol-javob metodi, topshiriq va mashqlar, adabiy tafakkur, baholash, badiiy matn tahlili.*

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining bilimni aniqlash, baholash va mustahkamlash jarayonlari o'zaro uzviy bog'liq holda tashkil etilishi lozim. Biroq adabiyot ta'limi amaliyotida bu jarayon ko'pincha savol-javob metodi bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchining badiiy tafakkuri rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Pedagogik nazariyalarga ko'ra, ta'lim jarayoni reproduktiv emas, balki produktiv xarakter kasb etishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, savol diagnostik vosita sifatida xizmat qilsa-da, u ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olmaydi. Pedagog va adabiyotshunos olim Abdulla Avloniy ta'limning asosiy maqsadi fikrlovchi shaxsni shakllantirish ekanini ta'kidlaydi<sup>32</sup>. Bu esa o'quvchini faqat savolga javob berishga emas, balki mustaqil fikrlashga undaydigan metodlardan foydalanish mavzuni mustahkamroq tushunishga yordam berishini isbotlaydi.

**Asosiy qism.** Pedagogik jarayonda bilimni faqat tekshirish emas, balki uni faoliyat orqali baholash va ko'nikmaga aylantirish muhim hisoblanadi (G'ofir Hamroyev fikri). Adabiyot darslarida esa bu jarayon aksariyat hollarda to'liq amalga oshmaydi: savol markaziy o'rinni egallab, topshiriq va mashqlar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Natijada o'quvchi badiiy matn haqida fikr bildiradi, biroq matn bilan mustaqil ishlash, dalillash, solishtirish va xulosalash kabi amaliy ko'nikmalarni yetarli darajada egallamaydi.

Adabiyot ta'limi metodikasida savol, topshiriq va mashq tushunchalarining aniq farqlanmasligi ham mazkur muammoni chuqurlashtiradi. Savol bilimni aniqlashga xizmat qilsa, topshiriq o'quvchining adabiy faoliyatini baholaydi, mashq esa hosil bo'lgan bilim va malakani mustahkamlaydi.

<sup>32</sup> Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 45–47.

Asosiy muammo shundaki, adabiyot ta'limida savol, topshiriq va mashq tushunchalari metodik jihatdan farqlanmaydi yoki ular o'zaro almashib ketadi. Natijada savol topshiriq vazifasini bajaradi, topshiriq esa mashq o'rnida qo'llaniladi. Bu esa adabiy ta'lim jarayonining mantiqiy zanjirini buzadi. Bilim tekshiriladi, biroq u baholanmaydi va mustahkamlanmaydi. Mazkur holat adabiyot fanining mohiyatiga zid keladi. Chunki adabiyot tayyor javoblarni aytish fani emas, balki matn asosida fikrlash, dalillash va xulosa chiqarish fanidir. Savolga asoslangan yondashuv esa o'quvchini faol subyekt emas, balki javob beruvchi obyekt darajasida qoldiradi.

Adabiyot ta'limida savol, topshiriq va mashq uchligi didaktik tizimni tashkil etadi. Bu uchlasining har biri alohida funktsiya bajarishi bilan farqlanadi. Savol-javob diagnostik funktsiya bajarib, o'quvchining fan va mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini aniqlashga xizmat qiladi. Topshiriq esa baholovchi funktsiyani bajarib, o'quvchilarni faoliyatini tekshiradi. Mashq esa formativ funktsiya bajaradi, bilim va ko'nikmani mustahkamlaydi.

Lev Vygotsky nazariyasiga ko'ra, topshiriq va mashqlar ta'limning asosiy vositalari sifatida qaralib, o'quvchi murakkab faoliyat jarayonida rivojlanadi<sup>33</sup>. Pedagog olim Benjamin Bloom taksonomiyasida yuqori darajadagi tafakkur topshiriqlar orqali shakllanishi ko'rsatib berilgan<sup>34</sup>.

O'zbek pedagoglari O'.Tolipov va M.Usmonboyeva ham ta'lim jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni asosiy tamoyil sifatida belgilaydilar<sup>35</sup>.

Savol–topshiriq–mashq zanjiri uzviy bog'liq didaktik tizimdir. Ushbu zanjirning bir bo'g'ini uzilganda, adabiy ta'lim samarasiz bo'lib qoladi. Bugungi amaliyotda esa savol haddan tashqari ko'payib, topshiriq va mashq soyada qolmoqda. Natijada o'quvchida tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, badiiy matn bilan ishlash malakasi shakllanmaydi.

**Tahlil:** Adabiyot darslarida badiiy asarni o'rganish jarayoni ko'pincha savol-javob bilan cheklanadi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanini o'rganishda o'quvchilarga asosan qahramonlar xarakteri, syujet voqealari va asarning g'oyaviy yo'nalishi yuzasidan savollar beriladi.

Otabek obrazi orqali jamiyatdagi yangilanish va eskilik o'rtasidagi ziddiyat aks ettiriladi. U adolat, halollik va taraqqiyot tarafdori sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, yuqorida berilgan ushbu parcha asosida o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi:

Otabek obrazining ijtimoiy qarashlari nimada namoyon bo'ladi?

Mazkur savol o'quvchining asarni o'qigan yoki o'qimaganini, umumiy mazmuni tushunganini aniqlaydi. O'quvchi tayyor fikrni qayta aytishi mumkin. Bu bosqichda bilim tekshiriladi, ammo baholanmaydi.

Savoldan keyingi mantiqiy bosqich sifatida topshiriq beriladi:

<sup>33</sup> Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. pp. 86–90.

<sup>34</sup> Benjamin Bloom. *Taxonomy of Educational Objectives: Cognitive Domain*. – New York: Longmans, 1956. – B. 18–24.

<sup>35</sup> Tolipov O', Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 112–118.

Otabek obrazining ijtimoiy qarashlarini romandan uchta aniq epizod asosida tahlil qiling va ularning tarixiy ahamiyatini izohlang.

Bu topshiriq o'quvchini matndan dalil izlashga, epizod tanlashga, fikrini asoslashga majbur qiladi. Aynan shu bosqichda o'quvchining bilim darajasi faoliyat orqali baholanadi. Topshiriq savoldan farqli o'laroq, o'quvchining adabiy tafakkurini yuzaga chiqaradi.

Bilimni barqaror ko'nikmaga aylantirish uchun mashq beriladi:

Otabek obrazini boshqa bir o'zbek romani qahramoni bilan ijtimoiy qarashlar nuqtai nazaridan solishtiring va qisqa yozma xulosa chiqaring.

Ushbu mashq orqali tahlil takrorlanadi, solishtirish malakasi shakllanadi, bilim mustahkamlanadi. Mashq o'quvchini faqat bitta asar bilan cheklab qo'ymaydi, balki umumlashtirishga o'rgatadi.

“O'tkan kunlar” asari misolida ko'rinadiki, savol–topshiriq–mashq zanjiri izchil qo'llanganda adabiyot darsi faqat mazmun aytish jarayoniga emas, balki fikrlash faoliyatiga aylanadi. Savol bilimni aniqlaydi, topshiriq uni baholaydi, mashq esa mustahkamlaydi. Natijada o'quvchi badiiy matn bilan mustaqil ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Adabiyot ta'limida savol-javob metodining mutlaq ustunligi fan mohiyati torayishiga olib kelmoqda. Savol o'quvchining bilimni aniqlaydi, biroq uni baholamaydi va mustahkamlamaydi. Natijada adabiyot darslari badiiy tafakkurni shakllantirish vositasidan ko'ra, mazmunni qayta aytish mashg'ulotiga aylanib qolmoqda. Bu holat o'quvchini faol subyekt sifatida emas, balki tayyor javob beruvchi obyekt sifatida shakllantiradi. Professor G'.Hamroyev ham shu muammoga to'xtalar ekan, yuqorida ta'kidlaganimiz kabi baholash uchun savoldan foydalanish fikriga olim qo'shilmaydi hamda noto'g'ri yo'l bilan o'quvchini baholash xato yo'l tutayotganimizni ekanligini ta'kidlaydi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, xususan, konstruktivistik yondashuv va faoliyat nazariyasi ta'lim jarayonida o'quvchining faol subyekt sifatida ishtirokini talab etadi. Lev Vygotsky tomonidan asoslangan yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga ko'ra, bilim murakkab faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu esa topshiriq va mashqlarning ta'limdagi ustuvor o'rnini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kuzatuvlar davomida aniqlanishicha, topshiriq adabiyot ta'limida baholovchi bosqichni tashkil etib, o'quvchining bilimni faoliyat orqali namoyon qilish imkonini beradi. Aynan topshiriq jarayonida o'quvchi matn bilan ishlaydi, dalillar tanlaydi, tahlil qiladi va mustaqil xulosa chiqaradi. Bu esa Benjamin Bloom taksonomiyasida ko'rsatilgan yuqori kognitiv bosqichlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Mashq esa bilimni mustahkamlovchi va uni amaliy ko'nikmaga aylantiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Takrorlash va qo'llash orqali o'quvchi o'z bilimni turli vaziyatlarga transfer qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan mashq adabiyot ta'limining uzluksizligini va natijaviyligini ta'minlaydi.

**Xulosa** o'rnida shuni aytamizki, o'zbek pedagogik tafakkuri vakillari, xususan, Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, ta'limning asosiy maqsadi fikrlovchi, ongli va mustaqil qaror qabul

qila oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Mazkur maqsadga erishish esa faqat savol-javob bilan emas, balki topshiriq va mashqlar asosida tashkil etilgan faoliyat orqali amalga oshadi.

Badiiy asar tahlili asosida olib borilgan amaliy kuzatishlar shuni tasdiqladiki, savol–topshiriq–mashq tizimi izchil qo‘llanganda adabiyot darsi mazmuniy bayon darajasidan chiqib, real intellektual faoliyat maydoniga aylanadi. Bunda savol bilimni aniqlaydi, topshiriq uni baholaydi, mashq esa mustahkamlaydi. Ushbu didaktik zanjir o‘quvchida tahliliy fikrlash, dalillash, solishtirish va umumlashtirish kompetensiyalarini shakllantiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B.
2. Benjamin Bloom. Taxonomy of Educational Objectives: Cognitive Domain. – New York: Longmans, 1956. pp. 18–24.
3. John Dewey. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938. — 25–30-betlar.
4. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. pp. 86–90.
5. .Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 112–118.
6. Skinner B.F. The Technology of Teaching. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1968. pp. 55–60.
7. Yo‘ldoshev J. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 56–60.
8. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B. 78–84.
9. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 45–47.